

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida Qoraqalpog'ston Respublikasida 2636 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 837 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1848 ta (13,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15590 tani tashkil etgan.



O'tgan yilga nisbatan 165 ta korxona va tashkilotlar kam tugatilgan

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1980	1902	348
	Sanoat	1846	1796	501
	Qurilish	1740	1709	420
	Savdo	3283	3180	450
	Tashish va saqlash	775	749	85
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	933	905	145
	Axborot va aloqa	309	293	23
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	297	292	53
	Boshqa turlari	4868	4764	611



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.


2019 yilning 1 yanvar holatiga 16031 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,5 % savdo, 11,5 % sanoat, 10,8 % qurilish, 12,4 % Qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 1,9 % dan va 30,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5138 ta), To'rtko'l (1615 ta), Beruniy (1331 ta), Amudaryo (1179 ta) va Ellikqala (1010 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Mo'ynoq (285 ta), Taxtako'pir (303 ta) hamda Shumanay (385 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.






✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **15590** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1848 ta (13,4 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 20,4 % savdo, 11,5 % sanoat, 11,0 % qurilish, 12,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,9 % dan va 30,5% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)**




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5028 ta), To'rtko'l (1505 ta), Beruniy (1297 ta), Amudaryo (1149 ta) va Ellikkala (1004 ta) tunanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Mo'ynoq (279 ta), Taxtako'pir (293 ta) hamda Shumanay (377 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona

va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

- 12944

01.01.2018 y.

- 13742

01.01.2019 y.


- 15590



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2636 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 46,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Nukus shahri (859 ta), Turtko'l (212 ta), Amudaryo (188 ta) va Beruniy (163 ta) tunanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Taxtako'pir (49 ta), Kegaili (65 ta) hamda Qanliko'l (67 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda
(farmer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (450 ta), sanoat (501 ta), qurilish (420 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (348 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (53 ta), axborot va aloqa (23 ta) hamda tashish va saqlash (85 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Respublika bo'yicha jami	1357	100,0	1799	100,0	2636	100,0
Savdo	302	22,3	308	17,1	450	17,1
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	249	18,3	390	21,7	348	13,2
Qurilish	185	13,6	193	10,7	420	15,9
Sanoat	164	12,1	371	20,6	501	19,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	151	11,1	132	7,3	145	5,5
Tashish va saqlash	99	7,3	64	3,6	85	3,2
Axborot va aloqa	56	4,1	39	2,2	23	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	24	1,8	47	2,6	53	2,0
Boshqa turlari	127	9,4	255	14,2	611	23,2

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar
kesimida soni, birlikda**






⊕ TIJORAT KORXONALARI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 12058 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2844 ta, oilaviy korxonalar – 663 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8235 ta va boshqalar 316 tani tashkil etgan.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



⊕ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 121 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga yoki 59,2 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 74 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Nukus shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 18,2 %), Mo'ynoq tumani (17 ta yoki 14,1 %) va Taxiatosh tumani (11 ta yoki 9,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Ellikqala tumani (4 ta yoki 3,3 %), Xo'jaili tumani (3 ta yoki 2,5 %), Snumanay (2ta yoki 1,7 %) va To'rtko'l (1 ta yoki 0,8 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalgan etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 59 ta (48,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 33 ta (29,3%) hamda savdoda 16 ta (13,2 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tadan (2,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,7 %), tashish va saqlashda 1 tani (0,8 %), tashkil qilgan.

Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi – 9 ta va Pokiston Respublikasi – 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
davlatlar kesimidagi ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta), sanoat (14 ta), savdo hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (2 tadan) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	4	28,6	15	41,7
Sanoat	8	57,1	14	38,9
Savdo			2	5,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			2	5,6
Qurilish			1	2,8
Sog'liq'ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish			1	2,7
Tashish va saqlash	1	7,1		
Boshqa turlar	1	7,2	1	2,7



❖ Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11985 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 13,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 4175 tasi (34,8 %) Nukus shahri, 1259 tasi (10,5 %) To'rtko'l, 1021 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 756 tasi (6,3 %) Ellikqala tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11985 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3162 tasi (26,4 %) – savdo, 1850 tasi (15,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1767 tasi (14,7 %) - sanoat, 1701 tasi (14,2 %) - qurilish, 900 tasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 744 tasi (6,2 %) - tashish va saqlash, 255 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasi, 212 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1394 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash hamda axborot va aloqa sohasi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2177 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 32,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahri (752 ta), To'rtko'l (191 ta), Amudaryo (155 ta), Beruniy va Qo'ng'irot tumanlarida (126 tadan) hissasiga to'gri keladi. Eng kam Taxtako'pir (32 ta), Qanliko'l (44 ta) hamda Shumanay (55 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (450 ta), sanoatda (501 ta), qurilishda (420 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (345 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (84 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (52 ta), axborot va aloqada (23 ta) hamda tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 679 tani tashkil etib, ulardan 663 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 31,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,0 % yoki 192 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,2 % yoki 187 tasi sanoat, 21,0 % yoki 139 tasi savdo, 8,1 % yoki 54 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,3 % yoki 15 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,5 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 9,0 % yoki 60 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish hamda sanoatta, eng kami esa qurilish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 996 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -165 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 1271 ta, 2017 yilda 1161 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2018 yilning yanvar-dekabrida ushbu ko'rsatkich 996 tani tashkil etgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Tugatilgan 996 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsovchalar, 243 tasi (24,4 %) savdo , 133 tasi (13,4 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 120 tasi (12,0 %) qurilish, 107 tasi (10,7 %) sanoat, 89 tasi (8,9 %) tashish va saqlashda, 77 tasi (7,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 36 tasi (3,6 %) axborot va aloqada, 32 tasi (3,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 159 tasi (16,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi savdo va qishloq va o'rmon xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	<i>Soni (birlikda)</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>Soni (birlikda)</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>Farqi, (+,-)</i>
Jami	1161	100,0	996	100,0	-165
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	109	9,4	133	13,4	24
sanoat	98	8,4	107	10,7	9
qurilish	143	12,3	120	12,0	-23
savdo	266	22,9	243	24,4	-23
tashish va saqlash	78	6,7	89	8,9	11
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	94	8,1	77	7,7	-17
axborot va aloqa	39	3,4	36	3,6	-3
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	177	15,2	32	3,2	-145
boshqa turlari	157	13,6	159	16,1	2

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 902 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 238 tasi (26,4%) savdo, 132 tasi (14,6 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 119 tasi (13,2 %) qurilishda, 107 tasi (11,9 %) sanoat, 89 tasi (9,9 %) tashish va saqlashda, 76 tasi (8,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 35 tasi (3,9 %) axborot va aloqada, 6 tasi (0,7 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 100 tasi (11,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda.

Ushbu yo'nالishda asosan Beruniy tumanida- 38 taga, Kegaili – 33 taga, Chimboy – 25 taga, Amudaryo – 13 taga kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-82-23 (24)